

7-SINF KIMYO DARSLIGIDAGI “KISLOTALAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA KIMYOVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi

Toshkent viloyati Bekobod tuman 24-umumiy o‘rta ta’lim maktab

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19879086>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi 7-sinf kimyo darsligidagi “Kislotalar” mavzusini o‘qitishda kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarda kimyoviy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritildi. Kislotalarning xossalari, turlari va amaliy ahamiyatini o‘rgatishda muammoli ta’lim, laboratoriya tajribalari hamda interfaol metodlarning samaradorligi ilmiy asoslandi. Shuningdek, o‘quvchilarda analitik fikrlash va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: kislota, indikator, pH, kimyoviy kompetensiya, kreativ yondashuv, muammoli ta’lim, laboratoriya, neytrallanish.

Аннотация

В данных тезисах освещены теоретические и практические аспекты формирования химических компетенций учащихся на основе креативного подхода при изучении темы «Кислоты» в курсе химии 7-го класса. Научно обоснована эффективность проблемного обучения, лабораторных экспериментов и интерактивных методов в обучении свойствам, видам и практическому значению кислот. Также проанализированы механизмы развития навыков аналитического мышления и экспериментальной деятельности у учащихся.

Ключевые слова: кислота, индикатор, pH, химическая компетенция, креативный подход, проблемное обучение, лаборатория, нейтрализация.

Kirish. “Kislotalar” mavzusi umumiy o‘rta ta’lim kimyo kursining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarda kimyoviy moddalarning xossalari va ularning o‘zaro ta’siri haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Ushbu mavzu orqali o‘quvchilar kislotalarning tarkibi, fizik va kimyoviy xossalari, hamda kundalik hayotdagi ahamiyati bilan tanishadi.

An’anaviy o‘qitish metodlarida mavzu ko‘pincha nazariy bayon bilan cheklanadi. Bu esa o‘quvchilarning tajriba asosida bilim olish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini yetarli rivojlantirmaydi. Shu bois kreativ yondashuvni joriy etish muhim hisoblanadi.

Nazariy asoslar. “Kislotalar” mavzusini o‘rganishda kimyoviy kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv komponent: kislotalarning tarkibi, formulalari, tasnifi;

Analitik komponent: reaksiyalarni tahlil qilish;

Amaliy komponent: indikatorlar yordamida muhitni aniqlash;

Refleksiv komponent: o‘z bilimini baholash.

Konstruktivizm kreativ yondashuv faoliyati ta’lim nazariyasiga asoslanib, o‘quvchilarning mustaqil bilim hosil qilish faoliyatini rivojlantirdi.

Tadqiqot metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, laboratoriya mashg'ulotlari, muammoli vaziyatlar yaratish, diagnostik testlar va ularining tahlili.

Asosiy qism. Mavzuni kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli.

1. Motivatsiya bosqichi.

Dars quyidagi savol bilan boshlandi:

“Limon nega nordon? Uning tarkibida qanday modda mavjud?”

Bu savol o'quvchilarda qiziqish va muammoli vaziyat hosil qiladi.

2. Bilimlarni o'zlashtirish bosqichi.

Kislotalar tushunchasi interfaol metodlar orqali tushuntirildi:

“Klaster” yordamida kislotalar turlari ajratildi;

“INSERT” orqali matn tahlil qilindi.

3. Amaliy faoliyat bosqichi.

Laboratoriya ishlari: indikatorlar (lakmus, fenolftalein) yordamida muhitni aniqlash, kislotalarning metall va ishqorlar bilan reaksiyasini kuzatish, neytrallanish reaksiyasini o'rganish.

4. Refleksiya bosqichi.

O'quvchilar quyidagi savollarga javob beradi: 1.Kislotalar kundalik hayotda qayerlarda uchraydi? 2.Neytrallanish reaksiyasi nimani anglatadi? 3.Kreativ metodlarning qo'llanilishi.

Tahlil va natijalar. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki: O'quvchilarning kimyoga qiziqishi oshdi, laboratoriya tajribalarini bajarish ko'nikmalari shakllandi, mavzuni chuqur tushunish darajasi ortdi, mustaqil fikrlash rivojlandi.

Xulosa. “Kislotalar” mavzusini kreativ yondashuv asosida o'qitish o'quvchilarda kimyoviy kompetensiyalarni samarali shakllantiradi. Ushbu metodika ta'lim jarayonini faollashtiradi, bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va shu bilan bir qator erkinlik beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sh.X.Shomurotova, V.U.Xo'jayev. Kimyo o'qitishda muammoli vaziyatlarni amalga oshirish metodikalari // Qo'qon DPU, Ilmiy axborotnomalari. 2026, 3-sonli, A-seriya, b:-227-231. <https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i03.029>. (OAK Rayosatining 31.03.2021 sanadagi №01-07/1368-sonli qarori).
2. Shomurotova Sh.X. Innovatsion texnologiyalardan bo'lajak kimyo o'qituvchilarni tayyorlashda foydalanish //Ta'lim, fan va innovatsiya. 1-son, 2026-yil, b.-87-89. (13.00.00 № 35).
3. Abdukarimov H. Kimyo o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Xudoyberdiyev A. Pedagogik texnologiyalar va ularni ta'limda qo'llash. – Toshkent, 2019.